



O'ZBEKISTON PREZIDENTI QOZOG'ISTON PREZIDENTI BILAN TELEFON ORQALI MULOQOT QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 12-iyun kuni Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Abay viloyati hududida ro'y bergan o'rmon yong'ini oqibatida insonlar halok bo'lgani munosabati bilan Prezident Qosim-Jomart Toqayev va qar-dosh Qozog'iston xalqiga chuqur hamdardlik va dalda so'zlarini izhor etdi. Tabiiy ofatga qarshi kurashish va uning oqibatlarini bartaraf etishda O'zbekiston barcha zarur yordamni ko'rsatishga tayyor ekani ta'kidlandi.

Prezidentlar O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasidagi yaxshi

qo'shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalarini ham muhokama qildilar.

Savdo, sanoat, energetika, transport, qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida kooperatsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Mintaqaviy kun tartibidagi masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

O'ZA



TARAQQIYOT YO'LI

XALQARO TASHKIOTLAR TAVSIYALARINI BAJARISH

DEMOKRATIK O'ZGARISHLARNING MUHIM BELGISI

Mamlakatimizda 2019 va 2021-yillarda bo'lib o'tgan Parlament va Prezident saylovlari hamda 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan umumxalq referendumini milliy davlatchiligimiz yo'lida muhim siyosiy ahamiyat kasb etdi. Jumladan, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning XXII bobi saylov tizimiga bag'ishlanib, unga fuqarolarning konstitutsiyaviy saylov huquqlari amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha umumiy tirof etilgan xalqaro prinsiplar va standartlarni hisobga olgan holda muhim yangi normalar kiritildi.

Davomi 2-betda

2023 9-IYUL O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVI

Gazetamizning bugungi sonida O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Ulug'bek Inoyatovning saylovoldi tashviqotiga doir maqola chop etilmoqda. Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e'lon qilinmoqda.

3-betga qarang.

MUNOSABAT

O'zbekiston — Italiya: STRATEGIK SHERIKLIK ALOQALARI YUKSAK DARAJAGA KO'TARILMOQDA

O'zbekiston va Italiya ko'p qirrali ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega. Ikki davlat o'rtasida bir necha yillardan buyon davom etib kelayotgan do'stona munosabatlar so'nggi yillarda mutlaqo yangi bosqichga chiqdi. Siyosat, xavfsizlik, iqtisodiyot, energetika, madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlik, savdo-iqtisodiy aloqalar sezilarli ravishda faollashdi.



Ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yil O'zbekiston mustaqilligi tan olingani va Italiyaning Toshkentdagi elchixonasi ochilganidan boshlab yo'lga qo'yilgan.

O'tgan 31 yil davomida o'zaro manfaatli va istiqbolli hamkorlik uchun mustahkam poydevor yaratildi, ishonchli siyosiy muloqot o'rnatildi.

Davomi 2-betda

MUQOBIL ENERGETIKA

Bu yil yoz fasli nisbatan issiq kelmoqda. Xususan, iyunning birinchi dekadasi kuzatilayotgan yuqori harorat taftini aksariyatimiz o'z tanamizda his qilib turibmiz. Tabiiyki, bunday sharoitda ishda ham, uyda ham konditsioner, ventilyator kabi havo haroratini mo'tadillashtiruvchi texnik vositalardan foydalanamiz. Bu esa, o'z navbatida, elektr energiyasiga yuklamani oshiradi. Hisob-kitoblarga ko'ra, ayni issiq kunlarda elektr energiyasiga kunlik talab bir oy avvalgi 195 million kilovatt-soatdan 255 million kilovatt-soatga yetishi mumkin.

QUYOSH TAFTI, SHAMOL SHASHTI, DARYOLAR SHIDDATI

Jilovlanayotgan tabiat in'omlari

Gap aholi va tadbirkorlik subyektlarini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash, umuman, tizim barqarorligi, unga talabning ortishi haqida borar ekan, buni faqat ob-havoning keskin isib yoki so'vib ketishi bilan bog'lash noto'g'ri bo'ladi. Binobarin, yurtimizda aholi soni ortishi, minglab yirik yangi ishlab chiqarish quvvatlari barpo etilishi hisobiga so'nggi besh yilda elektr energiyasi iste'moli 20 foizga, jumladan, aholi tomonidan sarflanishi 31 foizga ortgan. Mamlakatimizda kechayotgan shiddatli islohotlar samarasi o'laroq, iste'mol ko'rsatkichi yiliga 6 foizdan o'sib bormoqda.

Davomi 4-betda



INSON QADRI UCHUN

ENDI OLISGA QATNAB SARSON BO'LISH YO'Q

Tibbiyotga qaratilayotgan e'tibor samarasi bugun nafaqat markazda, balki olis hududlarda ham sezilmoqda. Vaqtida qaysidir kasallikka davo istab uzoq manzillarga borish, hafta-o'n kunlab vaqt yo'qotilgan sarsongarchiliklar barham topayotganini odamlar kundalik turmushida his qilmoqda.

Davomi 5-betda



TA'LIM SIFATI

TAMADDUN HODISALARIGA ELTUVCHI ODIMLAR

Yurtimizda Uchinchi Renessansning ro'yobga chiqishi aynan ilm-fan taraqqiyotiga, yoshlarning bilimi, dunyoqarashi, intellektual salohiyatiga ko'p jihatdan bog'liq. Jumladan, oliy ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ko'paytirish, ixtisoslashuv sohalarini kengaytirish, yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovini oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ayni shu ezgu maqsadga erishish yo'lidagi muhim odim sanaladi. Bu yo'nalishda qabul qilinayotgan qaror va farmonlar xotin-qizlarning oliy ta'lim muassasalarida bilim olishga bo'lgan huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish, gender tenglik tamoyillari ustuvorligini ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Davomi 5-betda



TARAQQIYOT YO'LI

XALQARO TASHKILOTLAR TAVSIYALARINI BAJARISH
DEMOKRATIK O'ZGARISHLARNING MUHIM BELGISI2023
9-IYUL
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENTI SAYLOVIIxtiyor BEKOV,
yuridik fanlar doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Joriy yilning 9-iyul sanasida mamlakatimiz hayotidagi muhim siyosiy voqea — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi xalq irodasi asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya va saylovga oid xalqaro standartlar, xalqaro ekspertlar tavsiyalarini asosida takomillashtirilgan Saylov kodeksi asosida bo'lib o'tadi.

Xalqaro kuzatuvchilar —
Prezident saylovi
jarayonining faol
ishtirokchisi

Fuqarolarning saylov huquqlari va erkinliklari nufuzli xalqaro tashkilotlar diqqat-e'tiborida bo'ladigan masaladir. Hozirda saylov huquqlari va erkinliklari ta'minlashga oid 20 dan ziyod xalqaro huquqiy hujjat mavjud. Xalqaro kuzatuvchilarning saylovlarda ishtiroki shu mamlakatda demokratik saylov standartlariga qanchalik rioya etilayotganini ko'rsatib beradi. Shu tariqa saylovlar oshkorligi, ochiqdigi va shaffofligi ta'minlanadi, saylov qonunchiligini xalqaro standartlar bo'yicha izchil takomillashtirib borishga asos yaratiladi. O'z o'rnida, saylov qonunchiligi va amaliyotini umumiy t'irof etilgan xalqaro demokratik standartlarga uyg'unlashtirish orqali fuqarolarning saylovga oid huquqlarini yanada keng va to'la ta'minlashga imkon bo'ladi. Shu bois, xalqaro kuzatuvchilar bildirgan taklif va tavsiyalar milliy prinsiplardan



kelib chiqqan holda saylov qonunchiligimizda o'z aksini topmoqda.

Milliy saylov qonunchiligini
takomillashtirishda xalqaro
kuzatuvchilarning o'rnini

Mamlakatimizda bo'lib o'tgan saylovlar jarayonini nufuzli xalqaro tashkilotlar, jumladan, YXHT Parlament assambleyasi, YXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, SHHT, MDH, TDT, IHT missiyalari kuzatib boradi.

Xalqaro saylov kuzatuvda YXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi missiyasi alohida o'rin tutadi. YXHT saylov kuzatuv mamlakatimizda beshta parlament saylovi hamda to'rtta Prezident saylovi o'z faoliyatini olib borgan.

Albatta, har bir xalqaro kuzatuv natijalariga ko'ra tavsiyalar bildiriladi. O'zbekistonda o'tkazilgan parlament va Prezidentlik saylovlari yakunlari bo'yicha

YXHT DIHIB o'z hisobotida saylovga doir qonun hujjatlarini uyg'unlashtirish, jumladan, yagona saylov kodeksini ishlab chiqish, saylovchilar uchun kengroq imkoniyat yaratish kabi bir qator tavsiyalarini bildirib o'tgan edi. Bu tavsiyalar va to'plangan tajribadan kelib chiqib, tarqoq holda amal qilgan saylov to'g'risidagi qonunlar va qonunosti hujjatlarini to'g'ridan-to'g'ri ijro etiladigan qonun bilan tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining "Saylov qonunchiligi takomillashtirishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunlari saylov qonunchiligini xalqaro standartlarga mos holda takomillashtirishning huquqiy omili bo'lib xizmat qildi.

YXHT DIHIB tavsiyalarini asosida saylov komissiyalaridan nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvlarini tashkil etishga oid vazifasi chiqarib tashlanganini alohida e'tirof etish joiz. Saylovoldi tashviqotini tashkil etish va o'tkazish

“ Saylovoldi tashviqoti davrida davlat xizmatchilariga, agar ular ishonchli vakil bo'lmasa, shuningdek, harbiylarga, diniy tashkilotlar xizmatchilariga, sudyalarga saylovoldi tashviqotini olib borish taqiqlandi. Saylov natijalarini e'lon qilish muddatlari asossiz cho'zilishining oldini olish maqsadida saylov komissiyalari qarorlari ustidan shikoyat qilish muddati 10 kundan 5 kunga qadar qisqartirildi.

bevosita siyosiy partiyalarning ixtiyoriy ishi bo'lgani sababli saylov komissiyalarining bu ishga aralashishi ularga xos bo'lmagan vazifa hisoblanadi.

Saylovoldi tashviqoti davrida davlat xizmatchilariga, agar ular ishonchli vakil bo'lmasa, shuningdek, harbiylarga, diniy tashkilotlar xizmatchilariga, sudyalarga saylovoldi tashviqotini olib borish taqiqlandi. Saylov natijalarini e'lon qilish muddatlari asossiz cho'zilishining oldini olish maqsadida saylov komissiyalari qarorlari ustidan shikoyat qilish muddati 10 kundan 5 kunga qadar qisqartirildi.

Yana bir muhim yangilik sifatida aytish mumkinki, siyosiy partiyalar saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan mablag'lardan foydalanishning shaffofligini ta'minlash maqsadida ular tomonidan saylovoldi tashviqotini olib borish taqiqlandi. Saylov natijalarini e'lon qilish tartibi joriy etildi.

Saylov sohasidagi og'riqli masalalardan biri xorijdagi saylov uchashtalari bo'yicha saylovchilar ro'yxati mazkur muassasalar rahbarlari tomonidan konsullik ro'yxati asosida taqdim etiladigan ma'lumotlar bo'yicha tuzilishi edi. Natijada xorijdagi fuqarolarimizning saylov huquqlari muayyan darajada cheklanib ketardi. Shu bois, Saylov kodeksiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan xorijda istiqomat qilayotgan O'zbekiston fuqarolarini diplomatik vakolatxonalarining konsullik hisobida bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'i nazar, saylovchilar ro'yxatiga kiritish tartibi, chet davlatlarda saylovchilar yashayotgan yoki ishlayotgan joyda ko'chma qutilarda ovoz berishining huquqiy asoslari yaratildi.

“ Yana bir muhim yangilik sifatida aytish mumkinki, siyosiy partiyalar saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan mablag'lardan foydalanishning shaffofligini ta'minlash maqsadida ular tomonidan saylovoldi tashviqotini olib borish taqiqlandi. Saylov natijalarini e'lon qilish tartibi joriy etildi.

Konstitutsiyada saylov
huquqlari kafolatlari

Ta'kidlash joizki, muomalaga layoqatsiz fuqarolarning saylash huquqini butunlay cheklash xalqaro huquq normalariga to'g'ri kelmaydi. Bundan tashqari, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining 2010-yildagi qarorida sudning individual bahosi bo'lmay turib, faqatgina ruhiy muomalaga layoqatsizlikka asosan to'liq ovoz berish huquqi bekor qilinishi qonuniy deb hisoblab bo'lmasligi ko'rsatilgan.

Umuman olganda, shaxsni muomalaga layoqatsiz deb topib, uni saylov huquqidan mahrum qilishni sud alohida masala sifatida ko'rib, muayyan shaxs ovoz berishda o'z harakatlari ahmiyatini tushunadimi yoki ularni boshqara oladimi, degan mezondan kelib chiqib, individual baholash tartibining amaliyotga joriy etilishi inson huquqlariga oid xalqaro huquqiy hujjatlarga mos keladi.

Mamlakatimizda 2019-yilgacha sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda qatnasholmas edi. Saylov qonunchiligini demokratlashtirish maqsadida qonunchilik kiritilgan o'zgarishlarga asosan, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etgan uchun sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslardan tashqari, barcha mahkumlar saylovda ishtirok etish huquqiga ega bo'ldi.

Xalqaro ekspertlar fikriga ko'ra, og'ir va o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxslarning saylovda ishtirok etish huquqini cheklash, ularning jamiyat va davlat ishlarini boshqarish hamda davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirishda ishtirok etish huquqini cheklash hisoblanadi.

Shaxs o'zini jamiyatning uzviy bo'lagi deb hisoblashi uchun muhim qarorlar qabul qilish jarayonida teng ishtirok etishi zarur.

BMT qabul qilgan "Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro Paktning 25-moddasiga muvofiq, har bir fuqaro kamsitishsiz hamda asossiz cheklovlar ham bevosita, ham erkin saylangan vakillar orqali davlat ishlarini boshqarishda qatnashish, umumiy va teng saylov huquqi asosida, yashirin ovoz berish orqali o'tkaziladigan va saylovchilarning erkin holdagi xohish-irodasini ta'minlovchi chinakam davriy saylovlarda ovoz berish va saylanish, o'z mamlakatida umumiy shartlarda davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega bo'lish lozim.

Yangilangan Konstitutsiyaning 128-moddasiga binoan, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etgan uchun sudning hukmiga ko'ra ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sudning qarori asosida mahrum etilishi mumkinligi umumiy saylov huquqi prinsipi yanada kengroq ta'minlanganidan, xalqaro standartlar talablari implementatsiya qilinganidan dalolat beradi.

Xulosa o'rinda aytish joizki, milliy saylov qonunchiligini yanada takomillashtirish, umumiy t'irof etilgan xalqaro standartlarga muvofiq lashtirish doimiy hamda tizimli ravishda davom etadigan jarayondir. Eng muhimi, yangi O'zbekiston sharoitida izchillik bilan olib borilayotgan demokratik jarayonlar ortga qaytmas tus olgan. Buning natijasida fuqarolar saylov huquqlarini kengaytirishga xizmat qiluvchi saylov qonunchiligi xalqaro standartlar va xalqimizning milliy an'analari hamda o'ziga xos madaniy qadriyatlariga hamohang ravishda takomillashtirib boriladi.

MUNOSABAT

O'zbekiston — Italiya:
STRATEGIK SHERIKLIK ALOQALARI
YUKSAK DARAJAGA KO'TARILMOQDABotirbek TO'RAZODA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

Boshlanishi 1-betda

Italiya texnologiya, muhandislik, sanoat hamda boshqa sohalarda jahonda yetakchi o'rnini egallagan sababli O'zbekiston bu davlatga katta qiziqish bilan qaraydi. Ko'p marotaba o'tkazilgan O'zbekiston — Italiya biznes-forumlari tomonlar sanoat kooperatsiyasi va savdo aloqalarini kengaytirishdan manfaatdor ekanini namoyon etdi.

Agar raqamlarga to'xtaladigan bo'lsak, 2022-yilda Italiya bilan o'zaro savdo hajmi 381 million dollarni tashkil etdi. Joriy yilning yanvar-aprel oylarida bu ko'rsatkich 155 million dollardan oshgani e'tiborga molik.

Ayni chog'da Italiyaning 54 yirik kompaniyasi mamlakatimizda o'z loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshiryapti. Ular orasida Toshkent metallurgiya zavodi ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilgan "Danieli", "aqlli" gaz hisoblagichlarini ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirayotgan "Pietro Fiorentini" va "Terranova", za'faron ishlab chiqarish bo'yicha hamkor "Opera Sri" singari yetakchi kompaniyalar bor. Shuningdek, bugungi kunda Italiya bilan energetika, metallurgiya, qurilish materiallari, bog'dorchilik, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda yangi loyihalar paketini ishlab chiqish bo'yicha muzokaralar davom etmoqda.



O'zaro savdo va investitsiyalar hajmi keyingi yillarda ikki barobar ko'paydi. Metallurgiya, energetika, elektrotexnika va boshqa tarmoqlarda Italiyaning yetakchi kompaniyalari bilan sanoat kooperatsiyasi loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

O'zbekiston Yevropa va Osiyo o'rtasidagi ko'prik hisoblanib, sheriklik nuqtayi nazaridan strategik ahamiyatga va katta salohiyatga ega davlat. Shu sababli Italiya mamlakatimizning zamonaviy rivojlanishida ishtirok etishni istaydi va ko'p tomonlama munosabatlarni chuqurlashtirishga tayyor.

Kuni kecha Rim shahrida bo'lib o'tgan biznes-forum davomida jami 9 milliard yevrodan ziyod qiymatga ega investitsiyaviy bitimlar va savdo shartnomalari imzolangan ikki mamlakat

iqtsodiyotiga sezilarli foyda keltirishi aniq.

Rasmiy Toshkent va Rim o'rtasidagi madaniyatlararo muloqot ancha jadal rivojlanmoqda. Ayniqsa, madaniyat, italyan tilini o'rganish, ta'lim va turizm sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish uchun katta salohiyat bor. Qolaversa, fan-ta'lim, sport, san'at sohalarida hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Masalan, Toshkentda Turin va Piza universitetlarining filiallari muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan bo'lsa, O'zbekiston uch yildan buyon Venetsiyadagi Xalqaro biyennaleida ishtirok etib keladi.

Parlamentlararo aloqalar ham izchil rivojlanib borayotganini alohida ta'kidlash joiz. 2011-yildan buyon Italiya parlamenti Deputatlar palatasi va Senati bilan hamkorlik qilish maqsadida O'zbekiston Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatida parlamentlararo guruhlari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, Italiya parlamentida "Italiya — Markaziy Osiyo" do'stlik guruhi tuzilgan. Vazirlik va idoralar darajasidagi almashuvlar ham yangi sur'at kasb etayotir. Hamkorlikning rejalar va yo'l xaritalari asosida idoralararo o'zaro munosabat faol amalga oshirilmoqda.

2021-yil 5-fevral va 21-oktyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi Italiya parlamentlararo hamkorlik guruhi a'zolari va Italiya parlamentining "Italiya — Markaziy Osiyo" do'stlik guruhi o'rtasida onlayn uchrashuvlar o'tkazilgan.

Bugun strategik sheriklik munosabatlari o'rnatilgach, mamlakatlarimiz o'rtasidagi aloqalar misli ko'rilgan yuksak daraja-



ga chiqdi. Ushbu tarixiy voqea O'zbekiston — Italiya ko'p qirrali hamkorligini yanada rivojlantirishda yangi muhim bosqichning boshlanishidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Italiya Respublikasi Prezidenti Serjo Mattarella taklifiga binoan shu yil 7-9-iyun kunlari ushbu davlatga tashrif tarixiy vo-

“ ITALIYA TEXNOLOGIYA, MUHANDISLIK, SANOAT HAMDA BOSHQA SOHALARDA JAHONDA YETAKCHI O'RINNI EGALLAGANI SABABLI O'ZBEKISTON BU DAVLATGA KATTA QIZIQISH BILAN QARAYDI. KO'P MAROTABA O'TKAZILGAN O'ZBEKISTON — ITALIYA BIZNES-FORUMLARI TOMONLAR SANOAT KOOPERATSIYASI VA SAVDO ALOQALARINI KENGAYTIRISHDAN MANFAATDOR EKANINI NAMOYON ETDI.

qea bo'lib, ikki tomonlama munosabatlarni barcha yo'nalishlarda jadal rivojlantirishda yangi sahifa ochdi. Rim shahridagi Kvirin saroyida bo'lib o'tgan muzokaralar chog'ida davlat rahbarlari iqtisodiy hamkorlik masalalarini ko'rib chiqdi. Shuningdek, gumanitar aloqalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, ta'lim, arxeologiya, ekologik xatarlarga qarshi kurashish sohalarida hamkorlik qilish istiqbollari muhokama qilindi.

Tashrif chog'ida yetakchilar mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar, eng avvalo, Afg'onistondagi vaziyat yuzasidan ham fikr almashdi. Afg'on xalqiga manzilli gumanitar yordamni davom ettirish hamda maxsus vakillar maslahatlashuvlarini muntazam o'tkazish muhimligi ta'kidlandi.

O'zbekistonda BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Oxirgi bir necha yilda hamkorlik portfeli uch barobar kengaydi va bugungi kunda yer va suvdan foydalanish, agrosanoat majmui, o'rmon xo'jaligi, ekologiya, chorvachilik va ko'plab boshqa yo'nalishlarni qamrab olgan.

Global miqyosda oziq-ovqat xavfsizligiga xatarlar kuchayib borayotgan sharoitda sheriklikni yanada kengaytirishdan har ikki tomon ham manfaatdor. Italiyaga rasmiy tashrifning birinchi kunida BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ofisida bosh direktori Syuy Dunyuy bilan uchrashuv chog'ida ham bu yaqqol ayon bo'ldi. Syuy Dunyuy O'zbekistonda agrar sohani modernizatsiya qilishga qaratilgan tarkibiy islohotlarni qo'llab-quvvatladi.

Mustasab aytganda, O'zbekiston va Italiya hamkorlik munosabatlari keng ko'lam kasb etib, strategik sheriklik aloqalari yuksak darajaga ko'tarilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Italiyaga tashrif ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarda oldinga tashlangan dadil qadam bo'ldi. Uning doirasida erishilgan kelishuvlar O'zbekiston — Italiya munosabatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qilishga ishonamiz.

BIRGALIKDA IJTIMOYIY DAVLAT SARI

XALQ DEMOKRATIK PARTIYASIDAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTLIGIGA NOMZOD ULUG'BEK INOYATOV DASTURINING BOSH G'OYASI



Joriy yilning 30-aprelida umumxalq referendumini orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O'zbekiston ijtimoiy davlat ekanini qat'iy belgilandi va shu tamoyilga muvofiq davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari uch barobar oshdi. Bu esa mamlakatimizning mustaqil taraqqiyot yo'lida ustuvor yo'nalishlardan biri sanalgan kuchli ijtimoiy siyosat yuritish tendensiyasining tom ma'noda yuqori bosqichga chiqishidan dalolat beradi.

Konstitutsiyaga kiritilgan barcha muhim o'zgartish hamda yangilanishlarining hayotimizda o'z tasdiqini topishida, so'zsiz, oldimda turgan siyosiy tadbir — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini izohlashga hojat yo'q. Binobarin, saylov shunday jarayonki, unda davlat hamda jamiyat taqdiriga bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi g'oya va tashabbuslar siyosiy partiyalar tomonidan ilgari suriladi. Saylovchilar esa bu g'oya va tashabbuslar bilan tanishgan holda amin-erkin xohish-irodasini saylov jarayonida o'z ovozi bilan namoyon qiladi. Albatta, bu galgi saylov yangilangan Konstitutsiyaga monand yangicha huquqliy makonda, xalqimizning ijtimoiy faolligi oshgan sharoitda o'tishi alohida ahamiyatga molikdir.

Har bir saylovchi o'z ovozi bilan erkin va farovon hayotga, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, jamiyatning barcha sohasini qamrab olgan yangi o'zgarishlarga o'z munosabatini bildiradi. Bu o'rinda Prezident saylovida ishtirok etayotgan nomzodning saylovoldi dasturida belgilangan chora-tadbirlar hamda vazifalar har bir saylovchi e'tiborini tortishi turgan gap.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi ham buni terekin angagan holda bo'lajak saylov uchun elektorat manfaatlarini dasturiy maqsadlaridan kelib chiqib, quyidan yuqoriga qarab yo'naltirilgan takliflar asosida har tomonlama chuqur tahlildan o'tkazilgan, keng qamrovli dasturini ishlab chiqdi. To'qqizta yo'nalish orqali yuzga yaqin g'oya va tashabbusni qamrab olgan dastur mazmun-mohiyati saylovoldi tashviquoti boshlangan shu kunlarda saylovchilar hukmiga havola etilmoqda.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga Xalq demokratik partiyasidan nomzod Ulug'bek Inoyatovning saylovoldi dasturi haqida partiya faollari o'z fikr-mulohazalarini bayon etdi.



Sharbat ABDULLAYEVA, O'zXDP Faxriy rahbari kengashi raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor:

— O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga Xalq demokratik partiyasidan nomzod dasturining birinchi yo'nalishi **"Kuchli ijtimoiy siyosat — ijtimoiy davlatchilik poydevori, barqaror jamiyat va farovon turmush asosi"** deb nomlanishi bejj emas. Sababi, keyingi yillarda insoniyat boshiga og'ir sinovlarni olib kelgan pandemiya, yildan-yilga keskinlashayotgan global iqlim o'zgarishi jarayonlari va xalqaro maydonda siyosiy, iqtisodiy vaziyatning taranglashuvi har bir davlat oldiga ijtimoiy siyosatni kuchaytirish vazifasini kechiktirmaslikni shart qilib qo'y moqda.

Kuchli ijtimoiy siyosatning birinchi poydevori ijtimoiy davlatning barqarorligi va farovonligini ta'minlashdir. Mazkur siyosiy harakatlar zahirida jamiyatning turli sohalaridagi muammolarni hal etish, inson manfaatlarini bog'liq huquqlarini adolati hamda demokratiya tamoyillariga asoslangan holda himoya qilish yetadi. Bundan tashqari, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish jarayonida ta'lim tizimini takomillashtirish hamda mavjud resurslarga tayangan holda tibbiyot sohasini rivojlantirish orqali fuqarolarimizning yanada farovon yashashiga zamin yaratiladi.

Amallarimiz niyatimiz bilan hamohang bo'lsa, maqsadga erishish oson bo'ladi. Shuning uchun dasturimiz ham o'zbek davlatchiligining o'q ildizi hisoblangan Konstitutsiyaga mosdir. Qolaversa, yangilangan Konstitutsiyada belgilangan ijtimoiy davlat

tamoyili Xalq demokratik partiyasining asosiy dasturiy maqsadlariga hamohangdir.

Mazkur yo'nalishda yoshlarning kasb-hunar tanlash, ta'lim olish, o'quv muassasalarini tugatgandan so'ng ishga joylashish kafolatini mustahkamlashni taklif etyapmiz.

Chunki oliy ta'limni tugatgan yoshlarimiz mutaxassisligi bo'yicha tegishli tashkilot yoki muassasaga ish so'rab borsa, unda tajriba va malaka yo'qligi ro'kach qilinib, ishga qabul qilmaslik holatlari ham uchrab turibdi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda mehnat bozoriga professional ta'limdan 144 mingdan ziyod bitiruvchi-yoshlar kirib kelgan. Ularining 82,8 foizi ish bilan ta'minlangan. Aslida, bu foizni boshqa xorijiy mamlakatlarda amaliyoti bilan solishtirganda ijobiy, deb baholash mumkindir. Biroq bu borada bugungi davlat siyosati davomiylikdan kelib chiqqan holda, yorqin kelajagimiz bo'lgan yoshlarni ish bilan ta'minlash masalasi asosiy vazifalarimiz mezon bo'lishi lozim. Shuning uchun doimiy ravishda ta'lim tizimini isloh qilish orqali jamiyatga malakali, bilimlil va kerakli bo'lgan mutaxassis yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash choralarini nomzodning saylovoldi dasturida asosiy o'rinni egallaydi.

Shuningdek, dasturning ushbu yo'nalishida **ehtiyojmand shaxslarga ajratilayotgan moddiy-ijtimoiy yordam manzilli va maqsadli yetib borishi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish** lozimligi keltiriladi.

Yurtimizda ehtiyojmand insonlarning turmush tarzini yaxshilash maqsadida ularga qonuniy imtiyozlar, imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda tegishli moddiy yordamlar ham ajratilishi barchamizga ma'lum. Lekin qandaydir sabab bilan ajratilgan moddiy yordam o'z manziliga, ya'ni haqiqatan shu yordamga muhtoj fuqaroga yetib bormasligi bilan bog'liq qonunbuzilish holatlari ham yo'q emas. Bu esa oxir-oqibat ehtiyojmand fuqarolarning hayot sifatini yaxshilashga harakat qilayotgan davlat ma'ablag'idan samarasiz foydalanish demakdir. Agar ayni yo'nalishda kuchli jamoatchilik nazoratini o'rnatolsak, ana shunday noxush holatlar tezroq topadi, ko'zlangan ezgu maqsadga tarqoq erishishga zamin yaratiladi.

Davlatimizning yanada taraqqiy etishiga har bir fuqaro kabi biz ham befarq emasmiz. Shu o'rinda fuqarolar qonun asosida berilgan saylov huquqlaridan foydalangan holda jamiyatimizning yanada taraqqiy etishi va rivojlanishi yo'lida o'z ovozinun munosib nomzodga berishi mumkin.



Mavjuda HASANOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O'zXDP fraksiyasi a'zosi:

— Nomzod dasturida uy-joy, sifatli kommunal xizmatlar odamlar hayot darajasini yaxshilashning muhim omili sifatida qayd etilgan.

Har bir millatning, xalqning tarixan shakllangan qadriyatlarini bo'ladi. Har bir shaxsning muqim boshpanasi bo'lishi kerakligi an'anasi ham chuqur ildiz otgan milliy qarashlarimizga borib taqaladi. Vatani ichra vatani, ya'ni o'z uyini bo'lishi xalqimiz farovon hayotning asosiy sharti deb biladi.

Buning huquqiy asosi sifatida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 47-moddasida: "Har kim uy-joyli bo'lish huquqiga ega. Hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joydan mahrum etilishi mumkin emas. Uy-joydan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararlarning o'rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta'minlanadi", deb qayd etilgan. Uy-joyga egalik qilish huquqi hamda uy-joy mulkdorlari huquqlari konstitutsiyaviy himoya qilinganini e'tirof etishimiz lozim.

Bugungi kunda yurtimizda aholi uchun qurilayotgan turar joylar salmog'i bilan birga fuqarolarimizning uy-joyga bo'lgan talabi ham ortib borishi tabiiy holdir. Respublikamizda aholi sonining o'sib borishi hamda yangi oilalarning tashkil topishi ham uy-joyga bo'lgan ehtiyoj ortib borishiga sabab bo'l moqda.

Jumladan, so'nggi olti yilda mamlakatimiz aholisi 5,5 millionga o'sgan bo'lib, yaqin yillarda 40 millionga yetishi kutilmoqda. Demografik ko'rsatkichlar shiddat bilan o'sayotgan hozirgi paytda, ayniqsa, ehtiyojmand

qatlamni turar joy bilan ta'minlash masalasi yil sayin dolzarb bo'lib bormoqda. Biz kambag'allar, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar, nogiron farzandlarni tibbiyotga o'ta-onalar, og'ir ijtimoiy ahvolda tushib qolgan ayollar uchun uy-joylar qurilishini yanada jadallashtirish tarafdorimiz.

Nomzodning saylovoldi dasturida belgilanganidek, "Uy-joy qurilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi kelajakda mazkur sohaning mustahkam huquqiy asosini yaratishga xizmat qiladi.

Dasturda kam ta'minlangan aholi uchun uy-joy qurishga imtiyozli ipoteka krediti berish amaliyotini kengaytirish masalasining qonun darajasida tartibga solinishi hamda uni amalga tatbiq etish choralarini haqidagi fikrlar mavjudligi diqqatga sazovor jihat, deysish mumkin.

Bugun mamlakatimiz qurilish bozorida tegishli tashkilotlardan ruxsat olmay, mahalliy aholi bilan hisoblashmay, mavjud talab-me'yorlarni mensimay noqonuniy obyektlar barpo etish holatlari kuzatilayotgani ham sir emas.

Albatta, bu borada davlat organlari va tashkilotlar tegishli nazorat tadbirlarini olib bormoqda, biroq ushbu masalada kerakli natijaga erishish maqsadida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hayotiy zarurdir.

"Ko'p kvartirali uylar va boshqa ko'chmas mulk obyektlarini ulush qo'shgan holda qurishda ishtirok etish to'g'risida"gi qonunni qabul qilish taklifi, ayniqsa, bugun dolzarb bo'lib, fuqarolar tomonidan ulush qo'shgan holda ko'p kvartirali uylar va boshqa ko'chmas mulk obyektlarini qurish jarayonini huquqiy jihatdan tartibga solishga, shu jumladan, turar joylar qurishga jalb etilgan aholi ma'ablag'larini himoya qilish kafolatlarini yaratishga xizmat qiladi.

Bu borada nomzodning saylovoldi dasturida noqonuniy qurilishlarning oldini olish maqsadida sohada jamoatchilik nazoratini amalga oshirishni yanada kuchaytirish vazifasi belgilangan bugungi kunda dolzarb bo'lgan masalaga e'tibor qaratilganini yaqqol ko'rsatadi.

Prezident saylovi orqali xalqimiz kelajak taraqqiyoti mezonini belgilaydi. Shu sababli nomzodning dasturiy g'oya hamda maqsadlarini hayotga joriy etish, dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun keng siyosiy maydon yaratib berish yo'lida O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga Xalq demokratik partiyasidan Ulug'bek Inoyatov nomzodini qo'llab ovoz berishga chorlaymiz!



Qizilgul QOSIMOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O'zXDP fraksiyasi a'zosi:

— Xalq salomatligi, millat genofondining mustahkamligi har bir davlat uchun bezir boylik. Bu juda dolzarb masala bo'lgani uchun ham yangilangan Konstitutsiyamizda aholi salomatligini asrash bilan bog'liq normalar bir necha barobar oshirildi.

Partiyamizning O'zbekiston Prezidentligiga nomzodi dasturida tibbiy sug'urtani bosqichma-bosqich joriy qilish tashabbusi o'rin olgan. Dunyodagi eng rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rsatadiki, tibbiy sug'urtani joriy etish sohada turli korruptsiyaviy holatlarning oldini olish bilan birga, kasalliklarni erta aniqlash, tibbiy yordam ko'rsatishning birlamchi bo'g'inida malakali va sifatli xizmatlarni tashkil etish, aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligini oshirishga xizmat qiladi.

So'nggi vaqtlarda farmatsevtika tizimida dush kelingan noxush holatlar fonida aytilish mumkin, bu sohada aynan davlat nazoratini kuchaytirish hamda yangi dori-darmonni sinovdan o'tkazish va ruxsat berish tartib-taomillarini jahon sog'liqni saqlash tashkilotlari asosida takomillashtirish zarurati mavjud.

Shuningdek, dori-darmon va tibbiy vositalar narx-navosini davlat tomonidan tartibga solishning qonun darajasidagi mexanizmlarini yaratish borasida saylovoldi dasturida ilgari surilgan taklif farmatsevtika bozorida barqarorlikni va ijtimoiy adolatlarni ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, pandemiya vaqtida ushbu sohada faoliyat yurituvchi ayrim tadbirkorlik subyektlari o'z mavqeini suiiste'mol qilib, fuqarolar hayoti va sog'lig'i uchun muhim bo'lgan dori-darmonlar

ning narxini asossiz oshirish holatlari uchrangani hech kimga sir emas. Yuqoridagilardan kelib chiqib, nomzod dasturida taklif etilayotgan "Dori-darmonlar va tibbiy vositalar narxlarini davlat tomonidan tartibga solish to'g'risida"gi qonunni qabul qilish har qachongidan muhimdir.

E'tiborli jihati shundaki, O'zbekistonda tibbiyot infratuzilmasini yanada modernizatsiya qilish, katta shaharlar va qishloq aholisini qamrab oladigan tibbiyot markazlarini tashkil etish, bu borada malakali kadrlarni tayyorlash va xalqimizga tibbiyot xizmatlarini taklif qilish kabi masalalar nomzodning saylovoldi dasturida asosiy o'rinni egallaydi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi mavjud muammolarning yechimi o'laroq, tibbiy xizmatlarni raqamlashtirish, shifokorlar tomonidan dori-larni tayinlashda elektron retsept tizimiga o'tish va sohada qat'iy davlat nazoratini o'rnatishga doir vazifalar dasturda belgilangan nomzodning tibbiyot tizimini raqamlashtirish bilan bog'liq takliflari dolzarbligini ko'rsatadi.

Shu sababli joriy yilning 9-iyul kuni bo'lib o'tadigan siyosiy jarayon — Prezident saylovida hurmatli fuqarolarimizni, saylovchilarimizni O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga Xalq demokratik partiyasidan nomzod Ulug'bek Inoyatovni qo'llab-quvvatlab ovoz berishga chaqiramiz!

Abror QURBONOV, O'zXDP Markaziy Kengashi boshqarma boshlig'i:

— Barqaror rivojlanishda bo'lgan har bir davlatning qudrati fuqarolarining yuqori intellektual salohiyatiga qarab belgilanadi. Xo'sh, intellektual salohiyatga ega bo'lgan qudratli davlatga qanday yo'llar bilan erishiladi? Albatta, chuqur bilim, ta'lim berish orqali erishiladi. Buni jahon tamadduniga asos solgan sivilizatsiyalar misolida ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga Xalq demokratik partiyasidan ilgari surilayotgan nomzod saylovoldi dasturining "Yoshlar ta'limi millat kelajagi va yurtimiz raqobatbardoshligining garovi" deb nomlangan yo'nalishida yoshlar uchun ta'lim kafolatlarini mustahkamlash bo'yicha qator takliflar va amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar aks ettirilgan.

Yurtimiz aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil qilishini inobatga oladigan bo'lsak, ta'lim sohada islohotlarni amalga oshirish va shu yo'l orqali bilimlil yoshlarni



jamiyatimizga yetkazib berish har birimizning zimmamizdagi majburiyat ekanini unutmasligimiz shart.

Dasturda ta'limda aholining barcha qatlamlariga teng imkoniyatlar yaratish uchun aniq choralar ko'rish zarurligi belgilangan. Xususan, bog'cha yoshidagi bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrovini kengaytirish, buning uchun

davlat yangi bog'chalar qurishi, mavjudlarini ta'mirlashi, davlat va davlat-xususiy sheriklik shaklidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ko'paytirish taklif etilmoqda.

Sohaga xususiy sektorning jalb qilinishi quvonarli holat, shu bilan birga, davlat bog'chalari soni ham oshib borishi kerak. Axir xususiy bog'chaga pul to'lash qobiliyati bo'lmagan, ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarning bolalarini qo'llab-quvvatlashimiz lozim.

Maktab o'quvchilari uchun jamoat transportidan foydalanishda tabaqalashgan tariflar joriy qilish, ya'ni ular kattalarga nisbatan arzonroq yo'lakirga to'lashi ijtimoiy adolatlarni ta'minlaydi. Yoshlarimizning kutubxonalaridan foydalanish imkoniyatini oshirish, ularni barcha uchun foydalanish erkin bo'lgan axborot-madaniy markazlarga aylantirish ma'rifatlil jamiyat qurishdek ezgu maqsad ro'yobiga xizmat qiladi.

Umuman, nomzod saylovoldi dasturi orqali "ta'lim — insonning ustuvor huquqini" qo'llab-quvvatlash pozitsiyasida muqim turganidan dalolat beradi. Mazkur masalada huquqlar va imkoniyatlar tengligiga amal qilinishi muhim ahamiyatga molik masaladir.



PREZIDENT SAYLOVI ORQALI XALQIMIZ KELAJAK TARAQQIYOT MEZONINI BELGILAYDI. SHU SABABLI NOMZODNING DASTURIY G'OYA HAMDA MAQSADLARINI HAYOTGA JORIY ETISH, DASTURIDA BELGILANGAN VAZIFALARNI AMALGA OSHIRISH UCHUN KENG SIYOSIY MAYDON YARATIB BERISH YO'LIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTLIGIGA XALQ DEMOKRATIK PARTIYASIDAN ULUG'BEK INOYATOV NOMZODINI QO'LLAB OVOZ BERISHGA CHORLAYMIZ!



Akmal UMARALIYEV, O'zXDP Toshkent viloyati kengashi raisi:

— Prezident saylovi doimo demokratik davlatlar taraqqiyoti va fuqarolarning siyosiy huquqlari tizimida muhim va markaziy o'rinni egallab kelgan. Har qanday demokratik jamiyat o'zagini erkin va adolatlil saylov tashkil etadi. Aynan mazkur tanlov orqali fuqarolar bevosita yoki o'zlari saylagan vakillari timsolida davlat va jamiyat hayotini boshqarish imkoniga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga Xalq demokratik partiyasidan nomzod Ulug'bek Inoyatovning saylovoldi dasturida fuqarolik jamiyati institutlarini takomillashtirish masalalari ham chetda qolmagan. **Unda fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvidagi bevosita ishtirokini kengaytirish, davlat funksiyalarini bosqichma-bosqich nodavlat institutlarga topshirish** kabi tashabbuslarni e'tirof etish joiz.

kilollar faoliyati yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 72-moddasi hamda bir necha normativ-huquqiy hujjatlar bilan atroflicha kafolatlandi.

Bugungi kunda yurtimizda 9 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyat olib boradi. Shu o'rinda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari amalga oshirilayotgan turli loyihalar, ijtimoiy adolat yo'lidagi dadil taklif va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash hamda ularni iqtisodiy-ijtimoiy hayotimizning chin ma'noda faol ishtirokchisiga aylantirishimiz juda muhim.

Bu jamiyatda turli qatamlar o'rtasida manfaatlar mutanosibligini ta'minlashga, ijtimoiy tenglikni qaror toptirishga yaqindan ko'maklashadi. Bu borada nomzod dasturida fuqarolik jamiyati institutlarini mahalliy miqyosda qo'llab-quvvatlash, tumanlardagi nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Bundan tashqari, bugun hayotimizni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qila olmaymiz. Raqamli texnologiyalar, so'nggi pallada sun'iy intellektning barcha jabhaga shiddat bilan kirib borayotgani, insoniyat tafakkuri kun sayin ildamlayotgani va sohaga jiddiy yondashuvni talab qilmoqda. Zamonaviy dunyoni tushunishda, eng ilg'or ITdan foydalanishda yoshlar, albatta, kattalarga qaraganda peshqadamdir.

Shu jihatdan olganda, yoshlarning mamlakat hayotidagi faolligini ta'minlash borasidagi tashabbuslar ustuvorlik kasb etadi.

Davlat boshqaruvida, davlat xizmatlarini ko'rsatishda, davlat yetakchilarning salohiyati va mahsuldorligini baholash kabilarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kirib chiqdi. Bu yo'nalishlarda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, yoshlar ancha ilg'or. Shuning uchun davlat va hukumat boshqaruvida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish asosida yoshlarning kuch va salohiyatidan foydalanish mamlakat ravnaqi uchun ijobiy samara beradi.

Xulosa shuki, mamlakat yetakchiligiga nomzod dasturi partiyamiz birlashmalari, faollari va elektorati tomonidan bildirilgan minglab takliflar orasidan davlatchilik rivoji va jamiyat farovonligi uchun eng dolzarb deb topilganlari asosida shakllantirilgan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVIDA XALQ DEMOKRATIK PARTIYASIDAN NOMZOD ULUG'BEK INOYATOVNI QO'LLAB-QUVVATLANG!

MUQOBIL ENERGETIKA

QUYOSH TAFTI,

SHAMOL SHASHTI, DARYOLAR SHIDDATI

Jilovlanayotgan tabiat in'omlari

Boshlanishi 1-betda

Talab va taklif nomutanosibliigi, jumladan, joriy yil uchun 3 milliard 400 million kilovatt-soat elektr tanqisligi prognoz qilinayotgan qiyin bir sharoitda, mamlakatimizda "yashil" energetikani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani, bu borada mavjud salohiyatdan foydalanishni rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilgani quvonarli hol, albatta.

Jumladan, Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish, ushbu maqsadga erishish yo'lida 2026-yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichini qo'shimcha 30 milliard kilovatt-soatga oshirib, jami 100 milliard kilovatt-soatga yetkazish, 2026-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash vazifasi belgilangan.

Bu borada yurtimizning aksariyat hududlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalari — suv, quyosh va shamol imkoniyatlaridan samarali foydalanish, shuningdek, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish orqali energiya sarfini kamaytirish, pirovardida esa kelajak avlod uchun uglevodorod zaxiralari saqlab qolish, ekologik vaziyatni yumshatishga qaratilgan yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Tomdida toma-toma, tanqislik tamom bo'lur

Navoiy viloyati Tomdi tumanida amalga oshirilayotgan 500 megavatt quvvatli shamol elektr stansiyasi qurish loyihasini bunga misol sifatida keltirish mumkin.

BAAning "Masdar" kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan mazkur loyiha doirasida yaqinda "Goldwind" kompaniyasining (Xitoy) birinchi 4,7 megavattli turbinasi o'rnatildi.

Energetika vazirligi ma'lumotiga ko'ra, ushbu zamonaviy qurilmaning balandligi 97 metr, shamol parraklarining har biri 77 metrni tashkil qiladi.

Kezi kelganida ta'kidlash joizki, ushbu yirik loyiha doirasida mana shunday 111 ta shamol turbinasi o'rnatiladi. Mintaqamizdagi eng yirik shamol elektr stansiyasi bo'lishi kutilayotgan mazkur stansiyada ilk quvvatlar joriy yil yakunida ishga tushirilishi rejalashtirilmoqda.

Keling, shu o'rinda ushbu loyiha ning iqtisodiy ahamiyati, stansiya aholi farovonligi, iqtisodiyot rivojiga qay darajada hissa qo'shishi mumkinligiga qisqacha to'xtalib o'tsak.

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, stansiya to'liq ishga tushirilgach, yiliga 1 milliard 800 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Bu ayni paytdagi elektr energiyasi tanqisligining yarmidan ko'prog'i qoplanadi, degani. Loyihaning to'liq quvvatiga erishish, shuningdek, yiliga 540 million kubometr tabiiy gaz tejatlashga olib keladi, o'z navbatida, atmosferaga 720 ming tonna zararli gazlar chiqishining oldi olinadi.

Ko'rinib turibdiki, mana shu birgina loyiha nafaqat elektr tanqisligini kamaytirish, balki aholi farovonligi, iqtisodiyot barqarorligi yo'lidagi boshqa masalalarga ham yechim bo'ladi. Binobarin, loyiha doirasida yiliga tejatlashi kutilayotgan 540 million kubometr tabiiy gaz qanchadan-qancha yurtdoshlarimiz xonadoni va ijtimoiy soha obyektlariga issiqlik olib kirishi, yangidan yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga zamin yaratishi mumkin bo'ladi. Atmosferaga 720 ming tonna zararli gazlar chiqishining oldi olinishi esa bugungi global iqlim muammolari kuzatilayotgan murakkab bir sharoitda juda muhim ahamiyatga egadir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, bu — muqobil energetika yo'nalishida amalga oshirilayotgan birgina loyiha va uning kutilayotgan samaralari. E'tibori jihatida, yurtimizning tabiiy geografik joylashuvi va iqlim sharoitidan kelib chiqib, bunday

katta imkoniyatlarni o'zlashtirishga qaratilgan yirik loyihalar deyarli barcha hududlarda hayotga tatbiq etilmoqda.

Jumladan, 2021-yilda ilk bor Navoiy viloyati Kartmana tumanida quvvati 100 megavattlik quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirilgan, Samarqand viloyatining Nurobod tumanida xuddi shunday quvvatga ega yana bir yirik quyosh fotoelektr stansiyasi foydalanishga topshirilgan bo'lsa, ayni paytda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Jizzax, Buxoro, Toshkent, Navoiy, Surxondaryo viloyatlarida ko'plab shamol, quyosh va gidroelektr stansiyalari barpo etilyapti.

Ehtiyojdan sakkiz karra katta salohiyat

O'zbekiston "yashil energetika"ni rivojlantirish borasida juda katta tabiiy imkoniyatga ega. Masalan, gidroenergetika yo'nalishini oladigan bo'lsak, yurtimizda 400 dan ortiq kattayu kichik daryolar borligining o'ziyoq ushbu yo'nalishdagi salohiyat darajasidan dalolat beradi. Binobarin, ularning o'rganilgan yillik gidroenergetika salohiyati 27,5 milliard kilovatt-soatga baholangan holda, ayni paytda uning 50 foizga yaqinidan foydalanib kelinayapti.

Agar mana shu salohiyatning yarmiga yaqinidan foydalanish orqali "O'zbekgidroenergo" tizimidagi stansiyalarning yillik umumiy quvvati 2 ming megavatt dan ortiq bo'lsa, 2 milliard kub metr tabiiy gaz tejatlashiga erishilayotganini ino-



chiqarilishining oldi olish imkonini bergan.

Shu davrda quvvati 2 ming 72 megavatt teng gidroelektr stansiyalarida 6,48 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilib, 1,94 milliard kub metr tabiiy gaz tejatlashiga erishilgan. Shunga mos ravishda havoga 2,71 million tonna zararli gazlar chiqarilishining oldi olingan.

Umuman, mamlakatimizda barcha soha va tarmoqlarda bo'lgani kabi qayta tiklanuvchi energetika yo'nalishida ham katta marralar maqsad qilingan, yuqorida aytib o'tganimizdek, bu borada yirik

o'zgardi. To'g'ri, ayrim joylarda aholiga elektr energiyasi 24/7 rejimida uzluksiz yetkazib berilmayotgandir, lekin ta'minot borasidagi holat avvalgisidan "osmon bilan yercha" farq qiladi.

Eng muhim va e'tiborli jihat esa quyosh panellaridan foydalanishni rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilgani muammo yechimiga qaratilgan eng to'g'ri qaror bo'ldi.

Jumladan, O'zbekiston Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarini joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, quyosh panellari ishlab chiqaruvchilari besh yil davomida barcha turdagi soliqlardan ozod qilindi. 2020-yil 1-yanvardan boshlab jismoniy shaxslarga quyosh fotoelektr stansiyalari, quyosh suv isitkichlari, shuningdek, energiya samarador gaz-gorellik qurilmalarni sotib olish xarajatlarining 30 foizi miqdorida kompensatsiyalar taqdim etish belgilandi.

2022-yil sentabr oyida quyosh energiyasini rivojlantirishni rag'batlantirishning yangi tizimi yaratildi, uning doirasida 2019-yilda qabul qilingan imtiyozlar qayta ko'rib chiqildi. Natijada jismoniy shaxslar tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalari sotib olish uchun kompensatsiya miqdori tasdiqlandi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari dan foydalanishni davlat tomonidan

QUYOSH ENERGIYASIDAN FOYDALANISH BORASIDA MISLI KO'RILMAGAN IMKONIYATLARGA EGAMIZ. XUSUSAN, O'ZBEKISTONDA QUYOSHLI KUNLAR YILIGA 300 KUNDAN ORTIQNI TASHKIL ETADI. BU ESA, O'Z NAVBATIDA, UNDA FOYDALANISH KO'LAMINI KESKIN OSHIRADI.

loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi islohotlarning ilk samaralari bo'y ko'rsatayotgani esa alohida e'tirofga sazovor.

Quyoshli xonadon

Bugungi kunda aholini elektr energiyasi bilan barqaror ta'minlash eng ustuvor vazifalar sirasiga kiradi. Negaki, texnika taraqqiyoti turmush tarzimizga shu qadar chuqur singib ketganki, elektrsiz nafaqat ish faoliyatimiz, balki ro'zg'orimizda ham marom buziladi, qator noqulayliklar paydo bo'la boshlaydi, ishimizda esa unum bo'lmaydi.

Elektr taqchilligi bor joyda tabiiyki, uzilishlar, demakki, noqulayliklar kuzatilib turadi. Yodingizda bo'lsa, yurtimizda yaqin-yaqingacha bu boradagi taqchilik muammosi bilan asosan iste'molchilarga cheklolvar kiritish orqali kurashildi. Yil sayin o'sib kelgan ehtiyoj esa muammoni yanada chuqurlashtirib, aholi, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi yurtdoshlarimiz turmush tarzida "elektrsiz hayot" ko'nikmasini shakllantirdi.

Bugungi kunga kelib vaziyat tubdan

qo'llab-quvvatlash yo'nalishlaridan biri fuqarolar va korxonalar tomonidan ularni sotib olishni moliyaviy rag'batlantirishdir.



2022-yil oxirida Energetika vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Tarmoqlararo energiyani tejash jam'armasiga ushbu maqsadlar uchun 100 milliard so'm o'tkazildi.

1-oktabrdan boshlab fuqarolar qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 3 yil davomida foizsiz to'lash orqali sotib olishlari mumkin bo'ldi. Ushbu norma O'zbekiston tomonidan ishlab chiqarilgan fotoelektr panellar, shamol generatorlari va quyosh suv isitkichlariga taalluqdir. Agar xaridor qurilmaning to'liq narxini va uni o'rnatishni darhol to'lasa, u yakuniy narxdan chegirma shaklida kompensatsiya olish huquqiga ega bo'ladi.

Bu kabi rag'bat va imtiyozlar, o'z navbatida, quyosh panellaridan foydalanishni ommalashtirishga keng yo'l ochyapti. Buni Farg'ona viloyatida ayni yo'nalishdagi ishlar misolida ham ko'rish mumkin.

Jumladan, Toshloq tumanidagi "Hamrak" mahalla fuqarolar yig'inida quyosh panellaridan foydalanish ommalashmoqda. Aholi beminnat dasturining o'ziga xos qulaylik va imkoniyatlaridan mamnun. Sababi, quyosh panellari yordamida olingan elektr energiyasi, avvalo, oila ehtiyojini qoplayapti, qolgan qismini sotish imkoniyati esa kreditni so'ndirishda qo'l kelmoqda.

Uyimizga 5 kilovatt-soat quvvatga ega quyosh panellari o'rnatganimizga ko'p bo'lgani yo'q, — deydi shu mahallada yashovchi Yursinali Mo'minov. — Har oyda o'rta hisobda 500-600 kilovatt dan ortiq elektr energiya sarflaymiz. Kuz-qish mavsumida esa iste'mol miqdori tabiiy ravishda ortadi. Yangi qurilma tufayli elektr energiyasi bilan bog'liq sarf-xarajalarimiz keskin tejaldi. Endilikda nafaqat o'z ehtiyojimizni qoplaymiz, balki ortig'ini davlatga sotish imkoniyatiga ham egamiz. Asosiy, chiroq o'chib qolishi bilan bog'liq muammolar barham topdi. Bizga havas qilib, quyosh panellari o'rnatish istagida bo'lgan mahalladoshlarim ushbu qurilmaning ishlab jarayoni, qulayliklari bilan yaqindan tanishmoqda.

Tahlillarga ko'ra, xonadonida 5 kilovattli quyosh panellari o'rnatgan oila o'z ehtiyojidan ortgan 20 kilovattgacha energiyani sotish imkoniyatiga ega. Bu raqamlar kalendar kuniga bo'lib chiqilsa, kutilayotgan foyda miqdorini chamalab olish qiyin emas. Bundan tashqari, quyosh panellari o'rnatgan xonadonlarga hech qanday qo'shimcha elektr hisoblagichlar o'rnatilmaydi. Avvaldan o'rnatilgan "aqli" hisoblagichlar sotilayotgan va davlat tomonidan olingan elektr energiyasini hisoblash imkonini beradi.

Toshloq tumani iste'molchilariga joriy yil uchun 250,6 million kilovatt-soat elektr energiyasi talab etiladi. Amalda esa qariyb 237 million kilovatt-soat elektr energiyasi yetkazib berilishi prognoz qilinmoqda. Demak, 13,7 million kilovatt-soatlik tanqislik mavjud. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida 266 ta binoga 2,5 megavattli quyosh panellari hamda 1 ming 900 litrlik geliokollektorlar o'rnatilayapti.

Elektr energiyasidan foydalanish hajmi yildan-yilga ortib borayotgan bir paytda muqobil energiyadan foydalanish ommalashayotgani quvonarli, albatta, — deydi Toshloq tumani hokimining birinchi o'rinbosari Kamoliddin Umarov. — Ayni paytda aholi bilan muloqotlarimizda quyosh panellaridan foydalanishning qulayliklari, bu borada mavjud imtiyoz va imkoniyatlar haqida ma'lumotlar beryapmiz. Shu kunga qadar turli obyektlarga 545 kilovattlik quyosh panellari, 8 ta suv isitish qurilmasi o'rnatildi. Buning uchun tijorat banklari tomonidan 16 fuqaroga 260 million so'm kredit ajratildi. Ayni paytda yana ko'plab yurtdoshlarimizga quyosh panellari xaridi uchun kredit hujjatlarini tayyorlanmoqda.

"Quyoshli xonadon" loyihasi doirasida 78 xonadonga 206 kilovattlik quyosh panellari o'rnatildi. Elektr energiyasi bilan bog'liq tanqislikni qo'llash maqsadida barcha ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralari, tadbirkorlik subyektlarining quyosh panellari o'rnatish, energiyatejamkor jihozlardan foydalanish borasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish choralarini ko'ribolmoqda.

Darhaqiqat, O'zbekiston Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida Farg'ona viloyatida 3 ming 703 ta xonadonga 20 megavatt, tadbirkorlik subyektlarining bino va inshootlariga 22,8 megavatt, ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralari esa quvvati 10,5 megavatt bo'lgan quyosh panellarini o'rnatish rejalashtirilgan.

— Shu kunga qadar 1 ming 774 xonadonga quvvati 3,2 megavatt, tadbirkorlik subyektlari tomonidan esa 3,5 megavatt bo'lgan quyosh panellari o'rnatildi. Shuningdek, ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralari 8,5 megavattlik ana shunday qurilmalar foydalanishga kiritildi, — deydi Farg'ona hududiy elektr tarmoqlari korxonasi matbuot kotibi Abduvahob Turdiyev. — Umumiy quvvati 50 kilovattgacha bo'lgan quyosh panellarini o'rnatgan jismoniy shaxslarga o'z iste'molidan orttirib yagona tizimga uzatilgan elektr energiyasining har bir kilovatt-soatiga davlat budjetidan 1000 so'm dan subsidiya ajratilishi belgilangan. Quyosh panellari o'rnatgan iste'molchilar bu borada onlayn ravishda hududiy elektr tarmoqlari korxonalarini bilan shartnomalar tuzmoqda.

"Quyoshli xonadon" dasturi orqali kelib tushayotgan murojaatlar mutaxassislar tomonidan o'z vaqtida o'rganilib, quyosh panellaridan foydalanish talablari, mavjud imtiyoz va imkoniyatlar yuzasidan tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Taraqqiyot strategiyasida belgilab qo'yilganidek, 2026-yilga borib mamlakatimizda quyosh va shamol elektr stansiyalari quvvati 8 ming megavattgacha, gidroelektr stansiyalari quvvati esa 2 ming 920 megavattgacha oshiriladi. Natijada ishlab chiqarilayotgan yalpi elektr energiyasida qayta tiklanadigan energiya ulushi 25 foizga yetadi, 3 milliard kub metr tabiiy gaz tejatlashi va bu orqali 1 million xonadonni 1 yil davomida gaz bilan ta'minlash imkoni yaratiladi. Tejab qolingan bu miqdordagi tabiiy gazdan esa 15 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish mumkin, boshqacha aytganda, bu bugungi kunda mamlakatimizdagi jismoniy iste'molchilarning 98 foizini bir yil davomida elektr energiya bilan ta'minlash uchun yetarli bo'ladi.

Shu bilan birga, 2023-2030-yillarda mamlakatimizda 11 ta yirik, 9 ta o'rta va 8 ta kichik va mikro gidroelektr stansiyasi qurilishi rejalashtirilgan. Yangi GESlarni ishga tushirish hisobiga esa yiliga 5,8 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi va 1,74 milliard kub metr tabiiy gaz tejatlashiga erishiladi.

O'zbekistonning "yashil energetika" borasida amalga oshirayotgan bu kabi yirik va hayotbaxsh loyihalari, ayni yo'nalishga doir yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallagan katta maqsadlariga tahsinga sazovor. Negaki, davlatning qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish borasida amalga oshirayotgan siyosati, birinchi navbatda, aholi va tadbirkorlik subyektlarini elektr energiyasi bilan barqaror ta'minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, tabiiy uglevodorod zaxiralari tejash orqali sanoatning boshqa tarmoqlarini jadal rivojlantirishga zamin hozirlaydi.

Uchinchi esa atmosferaga zararli gazlar chiqarilishining oldini olish hisobiga iqlim o'zgarishlari, o'z navbatida, qurg'oqchilik, chang-to'zon ko'tarilishi, suv tanqisligi kabi qator muammolar oqibatini yumshatishga imkoniyat yaratiladi.

Avazbek XUDOYQULOV, Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbirlari



**TAMADDUN HODISALARIGA
ELTUVCHI ODIMLAR**



**Nozliya NORMURODOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti prorektori,
filologiya fanlari doktori**

Boshlanishi 1-betda

"O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident farmoniga ko'ra, mamlakatimizning kamida 10 ta universiteti 2030-yilga qadar xalqaro miqyosda tan olingan tashkilotlar reytingida oliy o'quv yurtlari ro'yxatining dastlabki 1000 pozitsiyasiga kirishi ko'zda tutilgan. Buning uchun albatta oliy o'quv yurtlarini o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga bosqichma-bosqich o'tkazish, o'quv jarayoniga zamonaviy kredit-modul tizimini joriy qilish talab etiladi. Ushbu tashabbuslar samarasi o'laroq, o'tgan yillarda milliy OTMLarimiz birin-ketin xalqaro nufuzli reytinglarga kirdi va natijalar yildan-yilga yaxshilanib bormoqda.

Zamonaviy sharoitlarda barcha sohalar kabi oliy ta'lim xizmatlari bozoridagi globalashuv, milliy oliy ta'lim muassasalarining baynalmillatlashuvi jarayoni ular raqobatbardoshligini oshirishdagi bosh tendensiyalardan biriga aylanib boryapti. Yetakchi oliy ta'lim muassasalarimiz xalqaro ta'lim xizmatlari bozorida o'zlarining raqobat mavqeyini mustahkamlashga harakat qilmoqda. Xorijiy talabalar sonining ortishi, avvalo, ta'limni sifat jihatidan yangi bosqichga olib o'tish bilan bog'liq islohotlar natijasidir. Zamonaviy makonda global ta'lim xizmatlari bozoridagi infratuzilmaning rivojlanishi, THE, QS, ARWU, Webometrics kabi global raqobatbardoshlikning

Tamaddun hodisalari har qanday xalqning ilm-ma'rifat tizimini mahkam tutib, aniq maqsadlar sari yakdil odimlashdan boshlanadi. Qachonki, millat tarixiy taraqqiyoti davomida ilm-fanni, insoniy qadriyatlarini rivojlantirish yo'lidani izchil borsa, Renessans hodisasi yuz beradi. Yangi O'zbekiston esa aynan ana shu yo'ldan bormoqda.



tizimli institutlari faoliyatining rivojlanishi abituriyentlar tomonidan oliy ta'lim muassasalariga to'g'risida teran ma'lumotlar olish va tanlash imkoniyatini yaratmoqda. Xalqaro reyting agentliklari tomonidan shakllantiriladigan yetakchi universitetlar ro'yxati har bir reyting agentligining uslubiyoti asosida universitetlarning akademik, ilmiy, texnik va moliyaviy salohiyatining ayrim jihatlari yoritib beradi. Ularning eng xususiyatli jihatlardan biri yuqorida tilga olingan salohiyat elementlarini umumiy reyting ko'rsatkichlaridagi vaznining har xil ekanligidir. Qolaversa, aksariyat reyting agentliklari dunyo universitetlari reyting ko'rsatkichi bo'yicha yetakchi universitetlarning cheklangan sonini e'lon qiladi.

universitetimiz dunyoning kuchli 500+ OTMLari qatoridan o'rin oldi. Times Higher Education (THE) Xalqaro reyting agentligi tomonidan e'lon qilingan jahonning nufuzli universitetlari (THE Impact Rankings 2022) reytingida esa top-1001+ universitetlar ro'yxatiga kiritildi, umidli ta'lim muassasasi sifatida yangi turdagi maqomga (reporter) ega bo'ldi. Reporter maqomi reytingga kirish uchun faol ishlari bilan Times Higher Education reyting agentligini e'tirofiga sazovor bo'lgan oliy o'quv yurtlariga beriladi. Mazkur ro'yxatdagi oliy ta'lim muassasalarini dunyoning nufuzli oliygohlari safiga kirish uchun nomzod sifatida tan olinib, mazkur yo'nalishda Times Higher Education ularga yaqindan yordam berishga tayyor ekanligini anglatadi.

Mazkur xalqaro reyting agentligi 2004-yildan boshlab dunyo universitetlari reytingi bilan shug'ullanib keladi. Uning bu boradagi asosiy hamkorlari



ki, tanlangan indikatorlar tekshirish uchun juda qulay va oson bo'lib, mavhum holatlar uchramaydi.

Ushbu tashkilotlar reytinglarida yuqori o'ringa ega bo'lish uchun dunyo universitetlari o'rtasida sog'lom raqobat mavjud. Chunki dunyo yoshlari aynan xalqaro jamoatchilikda ijobiy imijga ega muassasada ta'lim olishni istaydi. Bunday universitetlarga talabning oshishi ularning moliyaviy barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Mazkur nufuzli agentliklar reytingida birinchi mingtalikka kirgan OTMLarning diplomi butun dunyoda tan olinadi.

biy natijadir. Ayniqsa, gender tenglikni ta'minlash va xotin-qizlar ta'limiga qaratilayotgan e'tibor (SDG5) bo'yicha dunyoning top-20 universiteti qatoridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining ham o'rin egallagan misli ko'rilgan natijadir.

Ushbu reytingdan o'rin egallash yo'lida universitetimiz 17 yo'nalishdagi Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) orasidan beshtasida ishtirok etdi. Universitet Sifati ta'limni ta'minlash (SDG4) bo'yicha saralangan 1500 dan ziyod dunyo universitetlari orasida faxrli 200+ natijani qayd etdi. Qashshoqlikka barham berishga ko'maklashish (SDG1) va Tinchlik va adolati ta'limni kafolatlash (SDG16) ko'rsatkichlarida 200+, Muvaffaqiyatli hamkorlik bo'yicha (SDG17) esa 800+ natijani qayd etdi. Bu, eng avvalo, universitet ta'lim va tarbiya jarayonining to'g'ri yo'lga qo'yilgan, jamoaning tizimli va samarali faoliyati natijasidir.

Ammo erishilgan bu yutuq va qo'lga kiritilgan natijalar bugun bizni to'liq qoniqtiradimi? Albatta, yo'q. Ma'lumki, inson tabiati, uning ruhiyati doimo o'zgarishga, takomillashuvga moyil. Shu ma'noda, O'zbekiston tarixida birinchi marta kuchli 600 talikka kirishimiz yetarli emas, chunki universitetning salohiyati, ta'lim sifati yanada yaxshi ko'rsatkichlarga erishish uchun ham yetadi. Yildan-yilga xalqaro hamkorlik aloqalari rivojlanib boryapti, xorijlik talabalar oqimi oshyapti, ilmiy salohiyatimiz yanada yaxshilanayapti.

Bir so'z bilan aytganda, tamaddun hodisalari har qanday xalqning ilm-ma'rifat tizimini mahkam tutib, aniq maqsadlar sari yakdil odimlashdan boshlanadi. Qachonki, millat tarixiy taraqqiyoti davomida ilm-fanni, insoniy qadriyatlarini rivojlantirish yo'lidani izchil borsa, Renessans hodisasi yuz beradi. Yangi O'zbekiston esa aynan ana shu yo'ldan bormoqda.



2023-yilda Times Higher Education (THE) Xalqaro reyting agentligi tomonidan e'lon qilingan jahonning nufuzli universitetlari (THE Impact Rankings 2023) reytingida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti top-600+ universitetlar ro'yxatiga kiritildi. Ikkinchi yildagi ishtirokning o'zidayoq qariyb 400 o'ringa yuqorilash misli ko'rilgan ijobiy natijadir.

Thomson Reuters — yetakchi xalqaro axborot agentligi hamda Elsevier — yirik ilmiy nashriyot kompaniyasi hisoblanadi. THE agentligi asosan Thomson Reuters ma'lumotlariga tayangan holda 400 ta eng ilg'or dunyo universitetlarining reytingini tuzadi va har yili sentabr-oktabr oylarida reytingni yangilab turadi. THE metodologiyasining o'ziga xosligi shunda-

2023-yilda Times Higher Education (THE) Xalqaro reyting agentligi tomonidan e'lon qilingan jahonning nufuzli universitetlari (THE Impact Rankings 2023) reytingida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti top-600+ universitetlar ro'yxatiga kiritildi. Ikkinchi yildagi ishtirokning o'zidayoq qariyb 400 o'ringa yuqorilash misli ko'rilgan ijobiy natijadir.

INSON QADRI UCHUN



**ENDI OLISGA QATNAB
SARSON BO'LISH YO'Q**

Boshlanishi 1-betda

lymona hozir to'rt yoshda. U tug'ma yurak nuqsoni borligi sabab harakat anchagina sust, ishtahasi yaxshi emas. Agar bolaligiga borib o'yinqarorlik qiladigan bo'lsa, nafas olishi ham biroz qiyinlashib qolardi. Bu holatning vaqtida oldini olish uchun otanasini bir necha bor uni shifokorlarga olib bordi. Ammo har doim bir xil javob: bolani faqat jarrohlik yo'li bilan davolash mumkin.

Jajigina qizaloqni jarrohlik stoliga yotqizishga ota-onaning yuragi dosh bermasdi. Lekin vaqtida oldi olinmasa, oqibati yomon bo'lishi aniq. Yana bir jihati, ular bu operatsiya uchun yaxshigina mablag' zarurligini ko'p bor eshitgan. Eng asosiysi, mablag' topishning o'zi bo'lmaydi. Bir chetda kuzatuvchi bo'lib turishdan yomoniy yo'q. Buning yechimini topishga imkon qadar harakatni boshlagan olinang quvonchli xabardan boshi osmonga yetdi. Ya'ni yuqorida aynan shu yo'nalishda Qarshi shahridagi viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida yangilikka qo'l urilgan barchaga ovoza bo'ldi. Tajribali shifokorlar ko'magida bolalar kardiyojarrohlik bo'limi tashkil etildi. Bu xushxabarni eshitgan lymonaning ota-onasi ham shu yerga murojaat qildi.

Shifokorlar tomonidan yaxshilab ko'rikdan o'tkazilgan qizaloqni jarrohlik amaliyotiga tayyorlashga kirishildi. Belgilangan muddat va tayyorlovdan so'ng qizaloq operatsiya qilindi, yuragidagi tug'ma nuqsoni bartaraf etildi.

Farzandi katta bir darddan forig' bo'lgan ota-onaning quvonchini bir ko'rsangiz edi. Jarrohlik amali-

to'j bo'lgan qashqadaryoliklar ko'proq Samarqandga yoki Toshkent shahriga borgan. Bu esa ko'pgina sarsongachiliklarni keltirib chiqargan. O'zim bir muddat Samarqand shahridagi bolalar kardiyojarrohlik bo'limida ishladim. U yerda barcha imkoniyatlar yaratilgan. Lekin Qashqadaryo aholisi uchun u yerda borishda ancha noqulayliklar guvohi bo'lib, shu yerda maxsus bo'lim ochishni maqsad qildik. Hozir bizda, birinchi navbatda, kardiyojarrohlik kadrlari yetishmovchiligi muammo bo'layotgandi. Buning ham imkonini topdik. Xorijda yoki boshqa hududlarda ishlayotgan shifokor do'stlarimizni shu yerga ishga taklif qilyapmiz. Turkmanistonlik hamkasbim Nazar Jumayev kuni kecha jamoamizga qo'shildi. Qisqa fursatlarda boshqa shifokorlar ham yetib keladi. Shu paytgacha o'tkazilgan jarrohlik amaliyotlarida esa poytaxtdagi shifoxonalarda mutaxassislari ko'magiga tayandik. Endi bunga ehtiyoj bo'lmaydi, degan umid-damiz.

Rahmatilla Ravshanov shu vaqtgacha Rossiyaning Qozon shahrida o'quv amaliyoti o'tash bilan birga, bir muddat tajriba oshirdi. O'tgan yili egallagan bilimni o'z yurtida qo'llash maqsadida Samarqandga kelib ishladi. Asli Kozon tumanida tug'ilib o'sgan bo's, keyinchalik Qashqadaryoda bo'ynalishni ochishga qo'l urdi. Bo'lim uchun tibbiy jihozlar kerak bo'lardi. Yosh shifokor buning ham uddasidan chiqdi. Hech ikkilanmasdan, "Ochiq budjet" loyihasi birlinchi mavsumida o'z tashabbusini ilgari surib, bir milliard ikki yuz million so'mlik tibbiy uskunalar olish uchun ovozga qo'ydi. Bu harakatni shifoxona jamoasi qo'llab-quvvatlab, yetarli ovoz to'plagan holda g'oliblikni qo'lga kiritdi. Natijada kardiyojarrohlik uchun eng zarur bo'lgan uskunalar sotib olinib, bu boradagi muammo ham hal bo'ldi.

Rahmatilla aka bilan Rossiyada birga ishlaganmiz, — deydi turkmanistonlik kardiolog Nazar Jumayev. — U kishi yaqinda Qarshi shahrida yangi bo'lim ochilganini aytib, meni bu yerda ishga taklif qildi. Shu sabab bugun yurtingizda ish boshlash arafasida turibman. Rosti, O'zbekistondagi yangilanishlarni ko'rib, tibbiyotdagi islohotlarga havasim ortdi. Ayniqsa, aholi uchun ancha qulayliklar yaratilib, turmush tarzini yaxshilash borasida qilinayotgan ishlar maqtovgacha loyiq. Albatta, shu qatorida odamlar o'rtasida tibbiy madaniyatning yuksalib borayotgani ham katta yutuq, deb o'ylayman. Xalqlarimiz azaldan birodar, yaqin qo'shni va qarindosh bo'lib yashab keladi. O'ylaymanki, bu an'ana abadiy davom etadi. Qolaversa, tibbiyot sohasida ham hamkorligimiz kengayib, qarindoshlik aloqalarining yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Bolalar kardiyojarrohlik bo'limi bosh shifokorining bildirishicha, bu yerda yaqin kunlardan boshlab har oy yuragida nuqsoni bor oltmish nafargacha bolada operatsiyalar o'tkaziladi.

**Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri**

"AYOLLAR DAFTARINI"

**MASHAQQATDA
TOBLANGAN IRODA**
boshqalarga namuna va maktabdir

Boshlanishi 1-betda

— O'tgan yili tuman hokimligi tomonidan men-ga 10 million so'm subsidiya berildi, 4 gektar yer ajratildi. U yerda elektr toki o'tkazilib, nasoslar o'rnatildi. O'sha yilning o'zida yana 33 million so'm imtiyozli kredit oldim. Dastlab ichxamgina issiqxonamizni kengaytirdik, — deydi Forish tumanidagi Qizilqum mahallasida yashovchi Aziza Xudoyberdiyeva. — Birinchi yili ko'kat ekib ko'rdim, 5 million so'm daromad oldim. Ishlarimni rivojlantirish uchun olgan bu mablag' yetarli emas edi. Shunda bahorda ko'chat yetishtirdim. Birinchi yili 30 mingta ko'chat ekdik, yaxshi foyda ko'rdik, qarzlarning katta qismidan qutuldim. Lekin daromadimning cho'g'i baribir ko'nglimdagidek emasdi. Hozir har biri 6 sotixlik ikkita issiqxonam bor. Bu yil 300 ming tup pomidor, qovun-tarvuz ko'chati yetishtirdik. Bundan tashqari, bodring, bul'gor qalampir niholani ham o'stirdik. Oilaviy ishlab, kreditlarimizni yopyapmiz. Bu orada shu yaqin atrofda yashovchi 10 nafar xotin-qiz ish bilan ta'minlandi.

Aziza Xudoyberdiyeva peshona teri, halol mehnati bilan turmush qiyinchiliklaridan aslo cho'chimadi, mehnatni o'bildi. O'ziga berilayotgan barcha imkoniyatlardan unumli foydalandi. Natijada nafaqat o'zi va oilasi, balki mahalladoshlarini ham ish bilan ta'minlashga erishdi. Tadbirkorligini muvaffaqiyatli yo'lga qo'yib, "Ayollar daftarini" dan chiqdi.

— Bugun yurtimizda qanday ishga qo'l urmoqchi bo'lsangiz, hammasi uchun imkoniyat bor. Faqat harakat qilish kerak. Mana shu e'tibor tufayli ishlarimning samarasini ko'rib kelayman, — deydi tadbirkor Aziza Xudoyberdiyeva. — Hozir 500 ming tup ko'chatga buyurtma olinganmiz. Bo'shagan yer-ga sarimsoqiyoz ekish niyatim bor. Ularni qishki mavsumgacha tayyor qilib, yanvar oyida ko'kat sifatida bozorga chiqarimoqchiman. Kelgusida zamonaviy issiqxona qurishni reja qilganman. Shuning harakatidaman. Yana 10 nafar xotin-qizni ish bilan ta'minlamoqchiman. Yaqinda gulchilikka qiziqib qoldim, shu sohada o'qib, tumanimizda gulchilikni rivojlantirishga hissamni qo'shmoqchiman. Bu yil biogumus ishlab chiqarib, sotuvini yo'lga qo'yisak, marra biznikni.



Zomin suv ombori yaqinida tashkil etilgan bazorchani mahalliy sayyohlar yaxshi biladi. Bu yerda mehmonlarga mazali qurut va dorivor giyohlar sotib, tadbirkorligini boshlagan Marhabo Xoliqovning qo'li-qo'lga tegmaydi. Zomin tumanining "Duoba" qishloq fuqarolari yig'inida yashovchi bu ayol o'tgan yili "Ayollar daftarini"ga kiritilgan edi. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj boshqa ayollar kabi u ham zarur yordamni oldi. Jumladan, uyiga quyosh paneli o'rnatib berildi.

— Dastlab qurut sotib tirikchiligimizni o'tkazganmiz, — deydi Marhabo Xoliqova. — Hozir bozorchamiz kengaygan sari rastamizdagi mahsulotlar turi ham ko'paydi. Uzoq-yaqin mamlakatlardan sayyohlar kelib, mahsulotlarni katta qiziqish bilan xarid qiladi. Tayyorlanish jarayonini erinmay so'raydi.

Tadbirkor faoliyatini kengaytirish maqsadida qizi bilan sayyohlar uchun turli taqinchoqlar tayyorlash, yumshoq qo'g'irchoqlar to'qishga kirishdi. Ro'zg'orini iqtisodiy jihatdan tiklab, "Ayollar daftarini"dan chiqishga muvaffaq bo'ldi. Davlatimizning g'amxo'rlikni o'zida his etgan inson sifatida boshqalarga namuna ko'rsatdi.

**Xolnisa RAHMONQULOVA,
jurnalist**

SIYRAT

Navoiy dahosini idrok etish

VA TUYISH SARI YO'L

yoxud o'ttiz kitob — o'ttiz qush



va majoz olami), Sirdaryoxon O'tanova ("Alisher Navoiy g'azaliyotida rang simvolikasi") hamda Sofiya Jumayevaning ("Alisher Navoiy she'riyatida ramziy raqamlar talqini") risolalari nomiga e'tibor qilinshing o'ziyoq yangi avlod navoiyshunoslari shoir ijodini bir mahallar urf bo'lganiday, "hayoti va ijodi", "g'oyalari va obrazlari" kabi umumiy tarzda emas, har bir asar va uning matnidagi va unga kirtilgan asarlar faqat bugunning yoki bu parchaga yuklangan zo'riy va botiniy ma'nalarni ochish, Navoiy olami bami-soli muazzam bir imorat bo'lsa, uning har bir g'ishti, har bir naqshini lupaga solib ko'rish, shoir ijodi rang, raqam va simvollar miqyosida ham o'rganila boshlaganini ko'rsatadi.

esa ulug' shoirning barcha asarlari butun, to'liq holda chop etilyapti, ijodining pafosini tayin etishda ham biror cheklov yo'q, shu bois, ushbu to'plamni bugungi kun navoiyshunosligining tiniq bir o'yinasi bo'libdi, de-yish mumkin.

Alisher Navoiy oxirgi yirik she'riy asari bo'lgan "Lison ut-tayr" dostonida Semurg' barcha qushlarning podshohi ekani, ammo uni hech qaysi parranda ko'rmagani, diydoriga intizor bo'lganlari bois, Semurg'ni qidirib, olis, mashaqqatli yo'lga tushganlari, ammo yo'l uqubatlarini tufayli barchasi emas, eng jonfido, Semurg'ga yetishni hayotining ma'nosi deb bilgan o'ttizta qush qolganini hikoya qiladi. Bu o'ttiz qush yetti iqlim kabi bo'lgan talab, ishq, ma'rifat, istig'no, tavhid, hayrat, faqr-u fano vodiylari osha uchib o'tadi, mashaqqat cheka-cheka jussalari bayyoni ruh kabi bo'lib qoladi, ammo dillarini Semurg'ni ko'rish, unga yetishish ishtiyoqi tark etmaydi...

Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi sa'y etib, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya, Yozuvchilar uyushmasi va Madaniyat vazirligi hamkorligida chop ettirgan o'ttiz jildli nashr turibdi. Uni 2022-yilda "Tamaddun" nashriyoti muhtasham bir shaklda, moziyning murabba g'ishtlariga kelbat beradigan ajoyib formatda chop etildi.

("Navoiyxonlik suhbatlari") bilan Abdurashid Abduq'afurov qalamiga mansub ("Buyuk beshlik saboqlari") monografiyalardan tarkib topgan.

Goho shunday ham bo'ladi, ixchamgina maqola katta bir monografiyadan salmoq-iroq bo'lishi mumkin. Majmuaning oxiri — o'ttizinchi jildini navoiyshunoslikka katta hissa bo'lib qo'shilgan ana shunday shukhli ilmiy topilmalar bezagan. Bu jild Ozd Sharafiddinov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi yana o'ttiz to'qqiz olimu shoirning sara maqolalaridan iborat.

Yosh olim Olimjon Davlatov yetakchilik qilayotgan Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi Navoiy va umuman, o'zbek madaniyatini dunyoga tanitish yo'lida yaxshi ishlar qilyapti. Chunonchi, bir yil ichida Navoiyni o'rganish bo'yicha imlda voqea bo'lgan nashrlarni to'plab, bir formatga solib, barchamizga namoyon eta oldi. Uch kishidan iborat mo'jaz jamoa va ularga ko'maklashgan sanoqli ko'ngillilarning bu himmati hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida tahsinga sazovor, albatta.

Zuhriddin ISOMIDDINOV, adabiyotshunos olim

Alisher Navoiy — turkiy so'z san'ati podshohi, so'z oshiqi uchun ideal siymo, o'zbek adabiyotining Semurg'i, Anqosi, Humosidir. Bu mukarram zotga qancha yaqin borsak, uning viqoru haybatini, ulug'vorligini shuncha teran anglaymiz, shoir ijodi qancha ko'p tadqiq etilsa, anglanganlarimiz shuncha kamligi tobora ko'proq sezila boradi. Bu gap aslo mahovat emas, aksar navoiyshunoslarning yakdil e'tirofidir.

Navoiy qiyofasi paydo bo'ldi. Hatto bir shoir Navoiyga xitoban, "tirik bo'lsang, ko'ksingga Lenin ordenini qo'yardik taqib", deya uni "alqagan" ham edi.

O'ttiz jildli navoiyshunoslik! Navoiyning sha'niga, shavkatiga shunday kitoblar yarashadi, albatta. Birinchi jildiga o'zbek navoiyshunosligining bir otaxoni va bir onaxoni — akademik Azizxon Qayumov ("Nor-dir sahifalari") bilan O'zbekiston Qahramoni Suyima G'aniyevaning ("Navoiy nasri nafosati", "Navoiy yodga olgan asarlar") risolalari jamlangan. Birinchi manba Navoiyning davr-doshlari haqida nodir ma'lumotlarga nihoyatda boy, jozibali, yaxshigina badiiy til bilan ta'rif etilgan manqoib bo'lsa, keyingi asarda ulug' shoirning nasrda ham betimsol qalam ustasi ekani dalillanadi, so'nggisida esa shoirning 220 ga yaqin asari nomi tilga olinganki, shuning o'ziyoq Navoiy ijodiga oid bibliografiya uchun nihoyatda asqatadi.

Bu o'ttiz jildning har biridagi ilmiy asarlar nomi va mualliflar ismini birma-bir ta'vil etaversak, yozib biz charchaymiz, o'qib siz. Biroq asarlari mana shu to'plamga kirgan oltmish bir muhtaram olimning loqal ismini aytib o'tmasak ham bo'lmas. Chunonchi, akademik Alibek Rustamiy, Saidbek Hasanov, Muhammadjon Hakimov, Anvar Hojiahmedov, Omonulla Madayev, Hasan Qudratulayev, Rahim Vohidov, Najmiddin Komilov, Muhammadjon Imomnazarov, Muslihidin Muhiddinov, Hanifa Solihova, Ma'mura Rashidova, Ibrohim Haqqul, Qosimjon Sodiqov, Vahob Rahmonov, Inomjon Azimov, Boqijon To'xliyev, Oysara Mamadaliyeva, Nuratulla Jumaxoja, Alimulla Habibulloyev, Zuhriddin Isomiddinov, Matnazar Abdulhakim, Komiljon Rahimov, Sulmonurod Olimov, Dilorom Salohiy, Farida Karimova, Maqsur Adasov, Shuhrat Sirojiddinov, Aftondil Erkinov, Nurboy Jabborov, Abdulhamid Qurbanov, Uzoq Jo'raqulov, Mahmud Hasanov, Surayyo Karimova, Sayfidin Rafiddinov, Bobomurod Erali, Abdumajid Hasanxon Yahyo, Erqash Ochilov, Karomat Mullaxojayeva, Ilyos Ismoilov, Ozoda Tojiboyeva, Husniddin Eshonqulov, Otobeq Jo'raboyev, Xurshid Abdurashid, Akrom Malikov, Nodir Ramonov, Ma'rifat Rajabova, Nazora Bekova, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov, Zuhra Mamadaliyeva, Sirdaryoxon O'tanova, Sofiya Jumayeva.

Ko'ramizki, jami yuz nafar muallif bor. Eng ixchami 240, to'lasii 480 bet bo'lgan bu o'ttiz kitobning loqal biror jildidan biror parchani misol keltirish durust bo'lishini bilganim holda, qayeridan ko'chirma olishga hayron bo'lib, tavakkaliga mexanistik bir yo'l tanladim — eng o'rtda bo'lgan 15-jildga uch muallifning asari kiritilgan bo'lib, uning markazida Matnazar Abdulkhamimning "Hayrat mezon" asari bor ekan, shuni nishonga oldim. Matnazar akaning bu risolasi ulug' shoirning yettita g'azaliga bitilgan sharhlaridan tuzilgan. O'sha maqolalardan biri — "Lahzadagi manguilik" badiasi bunday deb boshlanibdi:

Biroq Navoiyning o'zi aytganidek, o'zimizni anglashimiz shart. Ana shundagina bu daho ijodkorni ham teranroq tushuna boshlaymiz. Nasib qilsa, dunyoga mashhur Nemis madaniyati markazi (Gyote instituti), H.Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi, Rossiya fan va madaniyat markazi (sobiq "Rossotrudnichestvo"), "Fransuz aliyansi", Koreys madaniyat va san'atlarisaro'i, Yunus Emro instituti degan muassasalar kabi Navoiy instituti ham ta'sis etilib, dunyoning barcha yetakchi mamlakatlari poytaxtlarida ish boshlaydigan kunlar uzoq emas. Chunki davlatimizning dunyoga ochiqlik, milliy qadriyatlarimizni e'zozlash, madaniyat va san'at arboblari qadrlash kabi e'zgu amallardan iborat bo'lgan bugungi siyosati endilikda shunday bir tashabbusni ham ro'yobga chiqarishni taqazo etadi.

Bir mahal tupa-tuzuk olimlar "yangi davr adabiyoti 1917-yil 7-noyabrda boshlandi", deb da'vo qilard edi. Albatta, bu so'z san'atining mohiyatiga tushunmaslik oqibat. Shu bois, mumtoz adabiyotga haqiqat ko'zi bilan nazar tashlash aynan 1991-yilning kuzidan boshlandi, desak ham xato bo'ladi. Uning ilk kurtaklari aslida ellik yillar avval nishona ko'rsatgan edi (chunonchi, professor Ergash Rustamov zo'r jasorat bilan 1972-yilda "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida Ahmad Yassaviy haqida maqola chop ettirgan va uning bu "shakkokligi" o'sha yilning o'zida O'zkompartiya plenumiga qo'yilib, shafqatsiz tanqidga uchragan. Oqibat keksa frontovik olim bu ruhiy bosim tufayli xastalikka chalinib olmandan o'tgan). Haytovu, o'tmish adabiyotimizga chinakam ilmiy yondashishga intilish o'shandan beri davom etib keladi.

Ikkinchi jild esa navoiyshunosligimizning "cho'bir otlari", ya'ni buyuk mehnatkashlari bo'lgan ikki alloma — Abduqodir Hayitmetov

o'zbek navoiyshunosligi" deb atalgan, Alisher

o'zbek navoiyshunosligi" deb atalgan, Alisher

o'zbek navoiyshunosligi" deb atalgan, Alisher

o'zbek navoiyshunosligi" deb atalgan, Alisher

Mana, kitob javonimda "Istiqlol davri o'zbek navoiyshunosligi" deb atalgan, Alisher

o'zbek navoiyshunosligi" deb atalgan, Alisher



o'zbek navoiyshunosligi" deb atalgan, Alisher

o'zbek navoiyshunosligi" deb atalgan, Alisher

o'zbek navoiyshunosligi" deb atalgan, Alisher

MA'NAViyAT SARCHASHMASI

Kichkina tarixiy tangadagi 30 ta so'z va boshqa qadimiy artefaktlar (inson ijodiy faoliyat mahsulotlari va ulardagi yozuv, belgi va ramzlar) nimani anglatadi? Muzey xazinasida yana qanday e'tiborga molik eksponatlar bor? Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyidagi eksponatlarni kuzatayotgan kishida beixtiyor ana shunday savollar paydo bo'ladi.

QADIMIY ARTEFAKTLAR QANDAY O'RGANILMOQDA?

madaniy merosi jahon to'plamlarida" turkumidagi noyob, eng nodir eksponatlar tasvirlangan kitobni yaratish ustida ishlayapti. Kitob o'litta bo'lmiddan iborat bo'lib, unda muzeyda saqlanayotgan arxeologik, numizmatik, badi-

iy-hunarmandlik kolleksiyalari, qo'lyozma merosi, tasviriy san'at durdonalari haqida batafsil so'z yuritilgan. O'quvchilar ushbu qadimiy artefaktlar tarixini o'rganish va ularning rasmlarini tomosha qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tasavvur qiling-a, O'zbekiston hududida 1 million yil avval ham odamlar yashagan. Arxeologik tadqiqotlar bizning hududimiz antropogenez markazlardan biri ekani, bu mamlakatda odamzod jarda qadimdan yashab kelayotganini dadil taxmin qilish imkonini beradi.



Mirzo Ibrohim Subhiy tomonidan qayta yozilgan 54 betlik "Devoni Odam", 20 betlik "Devoni Mahmud", 160 betlik "Devoni afg'on"ni alohida qayd etish mumkin.

— Bu qoraxoniylar tangasi, yupqa va te-kis. Qoraxoniylar davrida iqtisodiy inqiroz avj olgan, metall qiymat va tanqis edi, — deya izohlaydi muzey ilmiy xodimi Avazbek Poziljonov. — Ammo shunga qaramay, ustalar bitta tangaga 30 tagacha so'z zarb qila olgan. Bu so'zlar Qur'onidan olingan suraga oid bo'lib, odamlar Muhammad (s.a.v) o'g'itlarini doim yodda saqlashi uchun shunday qilingan. Muzey xodimlarining xabar berishicha, 180 dona shunday tangadan iborat xazina Xo'jaobod tumanida ariq qazish chog'ida topilgan. Bu topilma Andijon muzeyining noyob kolleksiyasidan joy olgan.



Bizning uzoq ajdodlarimiz qanday yashagan? Ular nima bilan shug'ullangan, nimaga mehroq'gan, madaniyati, an'analari qanday rivojlangan? Antik davr sirlari bilan tanishish, paleolit, mezolit, neolit va eneolit davrlaridagi odamlarning hayoti, urf-odat va e'tiqodlari haqida ko'proq ma'lumot olish mumkin bo'ladi.

muzeyning noyob eksponatlari haqida batafsil to'xtalib o'tdi. Uning so'zlariga ko'ra, muzeyning numizmatik, qo'lyozma fondlarining eng nodir eksponatlari, badiiy va hunarmandlik kolleksiyalarini nashr etish rejalashtirilgan.

— Bu kitoblar nafis bezaklari bilan ham e'tiborni tortadi, — deydi Shahro Abdul-layeva. — Shu bilan birga, Sharh adabiyoti san'atining ko'zgu sifatida xattotlik va qo'lyozma kitoblarining o'lmas an'analari XX asrda ham yo'qolmaganiga yorqin misoldir.

Ayni paytda O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, asrash va targ'ib qilish bo'yicha Butunjahon jamiyati (WOSCU) O'zbekiston

Bundan tashqari, mazkur kitobdan Andijon viloyati hududida kulochilikning rivojlani-sh, temir ishlab chiqarish va metalga ishlov berish tarixi, tikuvchilik va gilamdo'zlik rivoji, yo'g'och o'yimakorligi va manzarali naqqoshlik, milliy kashthchilik, xattotlik va milliy kiyim-kechak san'ati turlari ham o'rin olgan.

Mahmud Zamaxshariy tomonidan hijriy 809 (1407)-yilda yozilgan "Tafsiri Kashshof"ning ikkinchi jildi, Shayx Abu Tolib al-Makkiy qalamiga mansub 908 sahifadan iborat "Quvt ul-qlub" asari, Temuriylar davrinin mashhur olimlaridan biri, arab tili, nutq va mantiq fani o'qituvchisi Mir Sayyid Sharif Jurjoniy qo'lyozmasi fondidagi qadimiy nodir asarlar hisoblanadi.

Muzeyning noyob va nodir eksponatlaridan biri XX asr boshlarida andijonlik hunarmand tomonidan yaratilgan choyshab sanaladi. Unga Sharq xalqlarining o'rta asrga mansub lirik satrlari ham bitilgan:

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DUK Bosh muharrir: Salim DONIYOROV MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriiz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-646. 41011 nusxada bosildi. Hajmi — 3 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda. "SHARQ" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Shahzod G'aforrov Dizayner: Xurshid Abdullayev Manzili: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy O'za yakuni — 22:20 Topshirildi — 23:20